

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING OILA BILAN ISHLASH  
HAMKORLIGINING ISH MAZMUNI VA UNING O'ZIGA XOS  
JIHATLARIGA YONDASHUVI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869053>

**Rahmonqulova Xolida Bosimovna**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotasiya.**

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash ish usullari, metodlari, oila bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning ish mazmuni va uning o'ziga xos jihatlari yondashuvi haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar.**

*oilalar, bola, hamkorlik, ish mazmuni, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ota-ona, farzand, maktab, tarbiyachi, mahalla, tarbiya.*

**Аннотация.**

*В данной статье описаны методы и приемы работы с семьей дошкольной образовательной организации, содержание работы по налаживанию сотрудничества с семьей и ее подход к ее конкретным аспектам.*

**Ключевые слова.**

*семья, ребенок, сотрудничество, содержание работы, организация дошкольного образования, родитель, ребенок, школа, воспитатель, соседство, воспитание.*

**Annotation.**

*This article describes the methods and techniques of working with work to establish cooperation with the family and its approach to its specific aspects.*

**Key words.**

*family, child, cooperation, content of work, organization of preschool education, parent, child, school, educator, neighborhood, upbringing.*

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yitti yoshgacha oilada, Maktabgacha ta'lim tashkilotida va mulk shaklida qat'iy nazar boshqa ta'lim tashkilotlarida maktab va mahalla hamkorligida olib boriladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda oilada tarbiyalashning tashkiliy, psixologik va uslubiy jihatdan ta'minlash zarur. Vatanimizni kelajagi buyuk davlat darajasiga

ko'taradigan ijodkor shaxsini yaratishda maktabgacha ta'lim , oila va mahalla hamkorligi mustahkam poydevor rolini o'ynaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda oila va ta'lim tashkilotlari hamkorligi masalasiga jamoatchilikning qiziqishi va ma'suliyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida ota-onalar, tarbiyachi va pedagoglarning tarbiyalovchilik vazifasini yanada oshiradi, oila va ta'lim muassasasi hamda ota-onalar va pedagoglar hamkorligining shakl va usullarini takomillashtirish zaruriyatini oshiradi. Chunki bu masala bugungi jamiyat talablari , oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi muhitga bog'liq bo'lgan doimiy, uzliksiz jarayondir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi:

- bola tarbiyasi, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish;
- ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;
- ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruxiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);
- bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rganish va ommalashtirish.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhij majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, homij tashkilotlarda ko'rgazmalar tashkil etish va kontsertlar uyushtirish, shuningdek bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga ma'sul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-uslubchining rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi - pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar xayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab

ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim, shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har safar borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta oldindan o'ylangan bo'lishi kerak

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim muassasasiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoqi sayrga chiqishdan avval u qanday kiyinayotganini ko'radilar va bolalarning ta'lim jarayonlaridagi imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar. Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiligi kamida 2 marta borishi kerak. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishni taqozo etadi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risida, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash haqida;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslaxatlar, konferentsiyalar, tadbirlar, ota-onalar uchun kechalar kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

a). Ota-onalar va oilalar bilan yakka-yakka ishlash. Ta'lim-tarbiya jarayonida bu tur katta ahamiyat kasb etib, yaxshi natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy hususiyatlarini o'rganib, tarbiyaviy jarayonda inobatga oladi. Buning natijasida tarbiyachi va ota-ona o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat vado'stlik munosabatlari o'rnatiladi.

b). Ota onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.

Bular ota-onalarning guruxli va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, (bolalar bog'chasi xodimlarining ota-onalar bilan birgalikda amaliy fooliyati) savol va javob kechalari.

v). Ko'rsatmali ishlar. Ishning bu turini ko'rgazmalar, fotomantajlar, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxona, oilaviy tarbiyaning turli muassasalari bo'yicha materiallar solingan papka va shu kabilarni qamrab oladi.

Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish.

Pedagogik targ'ibot ishida quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ'ib xayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasidagi ijobiy tajribalar, oiladagi bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar va ularni oldini olish, bartaraf etish yo'llari to'g'risida targ'ibot ishlarini olib boriladi.

3. Pedagogik targ'ibotga tayyorlashda ota-onalar har xil saviyada ekanliklari hisobga olib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko'rgazmali va ularning xis tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtasidagi birlik o'rnatilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifasi ota-onalar bilan o'quv-tarbiyaviy ishning butun tizimi bilan bolalarga zamonaviy maktab ta'limi talablariga to'liqroq muvofiq keluvchi maktabda o'qishga tayyorgarlikni tarkib toptirishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bolalarni maktabga tayyorlash daftari. Rasulova.M.SH., Jalolova.G.Q.tarjimasi. T., O'z PFITI, 1995.

2.F.Qodirova va boshqalar . «Maktabgacha pedagogikasi» «Tafakkur» T-2019y.

3.O.U.Xasanboeva.Oila pedagogikasi. T., 2007 y.

4.U.Otavalieva.Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. «O'qituvchi» T., 1994